

Mening Vatanim

Mixail Prishvin



O'qing. Nuqtalar
o'rniga kerakli so'zni
qo'ying.



“Turk” elida o'zakdir,
“Sharq”da guldin, bezakdir.
Dunyoda tinch bu makon,
Saxiy yurt ...



O'qing.

Onam quyosh chiqquniga
qadar barvaqt turar edi.
Kunlardan bir kun men ham
erta uyg'ondim. Onam bilan
birga shirchoy* ichdik. Onam
ushbu mazali sutli ichimlikni
sopol ko'zada qaynatdilar.
Ustida qizg'ish qaymoqli ko'pik
hosil bo'ldi, uning ostidagi
choy esa o'zining xushta'mligi
bilan menga juda yoqdi.



Bu ichimlik hayotimni yaxshi tomonga o'zgartirdi: onam bilan birga mazali choy ichish uchun men ham barvaqt tura boshladim. Sekin-asta erta uyg'onishga odatlandim, endi men quyosh chiqishini o'tkazib yubora olmas edim.

Keyinchalik shaharda ham erta tongda uyg'onib, o'simlik va hayvonlar hali-hanuz uxlayotgan bir paytda ijod qiladigan bo'ldim.

Ko'pincha o'ylab qolaman: qaniydi biz ham o'z yumushlarimizni bajarish uchun quyosh bilan birga uyg'onsak! Odamlar sog'lom bo'lib, ularda quvonch va baxt tuyg'usi ortar edi!

Nonushta qilib bo'lgach, ovga ketar edim...



Men uchun ov misli bir kashfiyot, ya'ni tabiatda o'zim ko'rmagan va hattoki hali hech kim uchratmagan ajoyibotlarni izlab topish edi.

Mening navqiron do'stlarim! Biz tabiatning egalarimiz, u biz uchun hayotning bebaho xazinalariga boy quyoshli maskandir. Ushbu xazinalarni asrab-avaylash uchun, avvalambor, ularni kashf qilish va elga tanitish kerak.

Baliq uchun toza suv zarur, demak, suv havzalarini asrashimiz kerak. O'rmonlar, cho'l va tog'lar turli-tuman jonivorlarning yashash joyi, demak, ushbu joylarni muhofaza qilishimiz* lozim.

*Baliqqa – suv, qushga – havo va osmon,
hayvonga o'rmon, cho'l va tog'lar kerak.
Insonga esa Vatan kerak. Tabiatni
asrash Vatanni asrash demakdir.*





shirchoy – sutli choy
muhofaza qilish – asrash



1. Qaysi satrlar yozuvchining bolaligi haqida so'zlaydi? Ularni topib o'qing.
2. Muallif ov deganda nimani nazarda tutgan?
3. Yozuvchi odamlarni nimaga chorlamogda? O'qing.
4. Muallif Vatanga bo'lgan munosabatni qanday so'zlar bilan ifodalagan?



Quyoshli maskanda uchratish mumkin bo'lgan so'zlarni toping.





Rasmlarning ketma-ketligiga qarab, hikoya tuzing.

